KARSHI STATE
TECHNICAL UNIVERSITY

QARSHI DAVLAT
TEXNIKA UNIVERSITETI

YER RESURSLARIDAN BARQAROR FOYDALANISH VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISHNING DOLZARB MUAMMOLARI

RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMAN

TO‘PLAMI









18-19-APREL
2025-YIL

“Yer resurslaridan barqaror foydalanish va raqamli texnologiyalarini joriy etishning dolzarb muammolari” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami - Qarshi “Intellekt” nashriyoti, 2025-yil.

Ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plamiga geodeziya, kartografiya va kadastr hamda yer tuzish va undan foydalanish yo‘nalishlarida faoliyat yuritayotgan olimlar, professor-o‘qituvchilar, ilmiy xodimlar, magistrantlar, talaba-yoshlar hamda ishlab chiqarish korxonalarining yetakchi muhandislarining iqtisodiyot va ijtimoiy sohada yer resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish, raqamli iqtisodiyot sharoitida topografik karta va planlarni elektron shaklga o‘tkazish, yer monitoringi natijalarini geoportal tizimida integratsiyasini yo‘lga qo‘yish, shahar va shahar tipidagi aholi punktlarini UzKARD tizimida ma’lumotlar bazasini shakllantirish hamda tegishli korxona va tashkilotlarga integratsiya qilish kabi dolzarb masalalari bo‘yicha maqolalari va tezislari kiritilgan.

Taqdim etilayotgan ilmiy maqolalar ma’lumotlaridan oliy ta’lim muassasalarining professor-o‘qituvchilari, ilmiy izlanuvchilar, doktorantlar, magistrantlar hamda sanoat tarmoqlarida faoliyat ko‘rsatayotgan mutahassislar ilmiy tadqiqot ishlarida va amaliyotda qo‘llashda foydalanishlari mumkin.

Mas’ul muharrir:

Qodirov I.E.- “Yerdan foydalanish, geodeziya va geoinformatika” kafedrasi dotsenti, t.f.f.d (PhD).

R.A.Turayev
J.Usmonov
A.Qurbonov
A.N.Inamov
A.R.Qadirov
B.Muqimov
D.Quvvatov
Sh.Hazratqulova
K.N.Xo‘jakeldiyev.
I.E.Qodirov
J.Ch.Urinov
H.V.Amankulova

To‘plamga kiritilgan ma’lumotlarning to‘g‘riligiga maqola mualliflar mas’uldir.

Manzil: Qashqadaryo viloyati, Qarshi shahri Xonobod shox ko‘chasi, 19-uy
Telefon: +99890 777 01 23

foydalanilgandagina amalga oshiriladigan vazifa - fuqarolarni oziq-ovqat, kiyim-kechak va boshqa hayotiy zarur ehtiyojlar bilan ta’minlashga olib keladi. Jamiyat, davlat taraqqiyotining muhim belgilaridan biri bo‘lgan qurilish, bunyodkorlik ishlarining avj olishi ham yerdan oqilona va unumli foydalanish ishlarining keng ko‘lamda tashkil etilishiga, bunday munosabatlarning kengayishiga sabab bo‘lmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston respublikasi Yer kodeksi . T.: O‘zbekiston, 1998

2. O‘zbekiston respublikasi Fuqarolik kodeksi. T.: O‘zbekiston, 1995

3. Mirzaabdullaeva M.R, Muqumov A.,Xafizova.Z.X. Yer huquqi. O‘quv qo‘llanma.

UDK 332.3

QASHQADARYO VILOYATI YER FONDINING YER TOIFALARI VA TURLARI BO‘YICHA TAHLILI

Norqulova Gulshoda Samandar qizi

Qar DTU ORCID:0009-0008-1391-2718

Annotatsiya: Mazkur maqolada Qashqadaryo viloyati yer fondining tarkibi, uning yer toifalari va yer turlari bo‘yicha taqsimlanishi hamda ulardan foydalanish holati tahlil qilingan. Tadqiqot davomida viloyat hududida mavjud qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar, aholi punktlari yerlari, sanoat va transport infratuzilmasi yerlari, o‘rmon va suv fondi yerlari hamda zaxira yerlarning hududiy ulushi o‘rganilgan.

Kalit suzlar: yer fondi, yer resurslari, yer toifalari, yer turlari, qishloq xo‘jaligi yerlari, sug‘oriladigan yerlar, lalmi yerlar, yaylovlar, yer resurslarini boshqarish.

Kirish. Yer resurslari har qanday hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan tabiiy boyliklardan biridir. Yer fondidan oqilona foydalanish, uning toifalari va turlari bo‘yicha to‘g‘ri taqsimlanishi qishloq xo‘jaligi, sanoat, infratuzilma hamda ekologik barqarorlikni ta’minlashda katta rol o‘ynaydi.

Qashqadaryo viloyati O‘zbekistonni Qashqadaryo viloyati yer fondining umumiy tavsifi: Qashqadaryo viloyati O‘zbekiston Respublikasining janubi-g‘arbiy qismida joylashgan bo‘lib, umumiy maydoni taxminan 28 ming kvadrat kilometrni tashkil etadi. Viloyat hududi asosan Qarshi vohasi, adir va tog‘ oldi hududlari hamda keng yaylovlardan iborat.

Viloyatda yer fondining tarkibi tabiiy sharoit, iqlim, relef va suv resurslariga bog‘liq holda shakllangan. Hududning katta qismi qishloq xo‘jaligida foydalaniladigan yerlar hisoblanadi. Ayniqsa sug‘oriladigan yerlar paxtachilik, g‘allachilik va bog‘dorchilik uchun muhim ahamiyatga ega.

Yer fondining tuzilishi odatda quyidagi asosiy toifalarga bo‘linadi: Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar, aholi punktlari yerlari, sanoat, transport va boshqa maqsadlar uchun ajratilgan yerlar, o‘rmon fondi yerlari, suv fondi yerlari, zaxira yerlar.

Mazkur toifalar hududning iqtisodiy rivojlanishi hamda tabiiy resurslardan foydalanish darajasini aks ettiradi.ng yirik qishloq xo‘jaligi hududlaridan biri bo‘lib, uning yer fondi turli tabiiy-iqlim sharoitlari hamda xo‘jalik faoliyatining o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. Viloyatda sug‘oriladigan yerlar, yaylovlar, tog‘ va adir hududlari hamda sanoat va aholi punktlari yerlarining salmoqli ulushi mavjud. Shu sababli yer fondining toifalari va turlari bo‘yicha tahlil qilish hududning barqaror rivojlanishini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Yer fondining yer toifalari bo‘yicha tahlili: Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar. Qashqadaryo viloyati yer fondida eng katta ulushni qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar egallaydi. Bu yerlar asosan sug‘oriladigan ekin maydonlari, lalmi yerlar, yaylovlar va pichanzorlardan iborat.

Sug‘oriladigan yerlar viloyat qishloq xo‘jaligining asosiy ishlab chiqarish bazasi hisoblanadi. Ushbu yerlar Qarshi magistral kanali va boshqa irrigatsiya tarmoqlari orqali suv bilan ta’minlanadi. Sug‘oriladigan yerlarda paxta, g‘alla, sabzavot, poliz ekinlari hamda bog‘-tokzorlar yetishtiriladi.

Yaylov yerlari ham viloyat iqtisodiyotida muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa chorvachilik rivojlangan hududlarda bu yerlar katta ahamiyatga ega. Viloyatning cho‘l va adir hududlarida keng yaylov maydonlari mavjud bo‘lib, ular asosan qoramol va qo‘y boqish uchun foydalaniladi.

Aholi punktlari yerlari: Aholi punktlari yerlari shaharlarga, shaharchalarga va qishloq aholi punktlariga tegishli hududlarni o‘z ichiga oladi. Bu yerlar uy-joy qurilishi, ijtimoiy infratuzilma, yo‘llar, maktablar, shifoxonalar hamda boshqa obyektlar joylashgan hududlardan iborat.

Viloyatda Qarshi, Shahrisabz, Kitob kabi yirik shaharlar mavjud bo‘lib, ular iqtisodiy va madaniy markazlar hisoblanadi. So‘nggi yillarda aholi sonining o‘sishi natijasida aholi punktlari yerlari maydoni ham kengayib bormoqda.

Sanoat, transport va boshqa maqsadlarga mo‘ljallangan yerlar: Mazkur toifadagi yerlar sanoat korxonalari, energetika obyektlari, transport tarmoqlari, aloqa liniyalari hamda boshqa infratuzilma obyektlari joylashgan hududlarni o‘z ichiga oladi.



1-jadval

Qashqadaryo viloyati Yer fondining toifalari bo‘yicha taqsimlanishi

2025 yil 1 yanvar holatiga gektarda

T/r	Tuman va shahar nomi	Jami yerdan foydalanuvchilar soni	Umumiy yer maydoni	shundan yer fondi toifalari bo‘yicha															
				Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar		Aholi punktlarining (shaharlar, posyolkalar va qishloq aholi punktlarining) yerlari		Sanoat, transport, aloqa, mudofaa va boshqa maqsadlarga mo‘ljallangan yerlar		Tabiatni muhofaza qilish, sog‘lomlashtirish va rekreatsiya maqsadlariga mo‘ljallangan yerlar		Tarixiy-madaniy ahamiyatga molik yerlar		O‘rmon fondi yerli		Suv fondi yerlari		Zaxira yerlar	
				Soni	Maydoni	Soni	Maydoni	Soni	Maydoni	Soni	Maydoni	Soni	Maydoni	Soni	Maydoni	Soni	Maydoni	Soni	Maydoni
A	**B**	**1**	**2**	**3**	**4**	**5**	**6**	**7**	**8**	**9**	**10**	**11**	**12**	**13**	**14**	**15**	**16**	**17**	**18**
1	Fuzor	4 350	265230	3 844	249 285	5	413	480	5 759	1	10			1	7 018	17	2 488	2	257
2	Dehqonobod	2 656	395662	2 016	287 926	3	630	486	1937			141	603	1	102634	7	1892	2	40
3	Qamashi	5 728	245735	4877	145243	54	521	665	5904	1	10129	97	229	7	75176	26	8297	1	236
4	Qarshi	5 810	91633	5070	84637	17	504	547	2628			122	178	4	800	49	2741	1	145
5	Koson	9 332	187241	8 649	182061	4	377	551	1828			87	210	1	302	39	2141	1	322
6	Kasbi	7 122	73479	6559	70230			424	1051			111	301	1	22	26	1764	1	111
7	Kitob	6 989	174269	6068	95957	2	686	666	1194	1	16	223	338	3	75468	26	610		
8	Mirishkor	4 973	312538	4320	298939	1	298	592	3184			28	112	1	596	31	9409		
9	Muborak	2 411	307013	2093	291086	5	319	287	12465			14	92	1	1987	11	1064		
10	Nishon	5 659	211128	5099	175963	7	664	491	18015					1	2789	61	13697		
11	Chiroqchi	4 577	112666	4175	86786	1	506	311	317			63	73	1	22729	26	2255		
12	Shahrisabz t	6 189	161819	5300	90043			836	1755	2	50935	5	1	3	16261	43	2824		
13	Yakkabog‘	7 303	134947	6476	103423	3	668	565	11450	1	7944	225	241	2	8715	31	2506		
14	Qarshi sh.	497	7551	3	1289	1	4663	445	1380			44	128	1	40	3	51		
15	Shahrisabz sh	401	4868	94	2709	2	2105	302	20							2	25	1	9
16	Ko‘kdala	3 485	171020	3202	163188	11	93	253	1354			13	61	1	5091	5	1233		
Jami:		**77 482**	**2 856 799**	**67 845**	**2 328 764**	**116**	**12 447**	**7 901**	**70 241**	**6**	**69 034**	**1 173**	**2 567**	**29**	**319 628**	**403**	**52 997**	**9**	**1 120**

Qashqadaryo viloyati tabiiy gaz, neft va boshqa foydali qazilmalarga boy hudud hisoblanadi. Shu sababli bu yerda gaz qazib olish, qayta ishlash va energetika korxonalari faoliyat yuritadi. Bunday obyektlar joylashgan hududlar sanoat yerlariga kiradi.

Tarixiy-madaniy ahamiyatga molik yerlar bu inson sivilizatsiyasi, tarix, madaniyat va me’morchilik rivojini aks ettiruvchi hududlar, shaharlar, yodgorliklar yoki arxeologik joylardir. Ular milliy va jahon madaniy merosining muhim qismi hisoblanadi.

O‘rmon fondi yerlari. Viloyatda o‘rmon fondi yerlari asosan tog‘li hududlarda joylashgan. Ushbu yerlar ekologik muvozanatni saqlash, tuproq eroziyasini kamaytirish hamda bioxilma-xillikni asrashda muhim ahamiyatga ega.

O‘rmon hududlari aholining dam olishi va turizmni rivojlantirish uchun ham muhim resurs hisoblanadi.

Suv fondi yerlari. Suv fondi yerlari daryolar, kanallar, suv omborlari va boshqa suv havzalari joylashgan hududlarni o‘z ichiga oladi. Qashqadaryo daryosi viloyatning asosiy suv manbalaridan biri hisoblanadi. Bundan tashqari irrigatsiya tizimlari qishloq xo‘jaligini suv bilan ta’minlashda katta rol o‘ynaydi.

Zaxira yerlar. Zaxira yerlar davlat zaxirasida bo‘lgan va hozircha muayyan foydalanishga berilmagan hududlardir. Kelajakda iqtisodiy loyihalar, qishloq xo‘jaligi yoki qurilish uchun foydalanilishi mumkin.

Yer turlari bo‘yicha tahlil: Yer fondi tarkibida turli yer turlari mavjud bo‘lib, ular tuproq tarkibi, foydalanish usuli va tabiiy sharoitlarga qarab farqlanadi. Qashqadaryo viloyatida quyidagi asosiy yer turlari uchraydi:

sug‘oriladigan ekin yerlari, lalmi ekin yerlari, yaylovlar, pichanzorlar, bog‘ va tokzorlar.

Sug‘oriladigan yerlar viloyat qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining asosiy qismini tashkil etadi. Bu yerlar yuqori hosildorligi bilan ajralib turadi.

Ko‘p yillik daraxtzorlar bir marta ekilib, ko‘p yil davomida hosil beradigan daraxt yoki butalardan tashkil topgan qishloq xo‘jaligi ekinlaridir.

2-jadval

Qashqadaryo viloyatda yer fondining 2018-2026 yillar bo‘yicha taqsimlanishi

№	Yer fondi toifalari	2018 yil	2019 yil	2020 yil	2021 yil	2022 yil	2023 yil	2024 yil	2025 yil	2026 yil
1	Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar	2337784	2337296	2322754	2321787	2321391	2330949	2339753	2328764	2248854
2	Aholi punktlarining yerlari	11487	11487	11487	12413,2	12453	12430	12427	12447	12410
3	Sanoat, transport, aloqa, mudofaa va boshqa maqsadlarga mo‘ljallangan yerlar	66566	66715	67026	67044	67403,2	67867	69304	70241	84532
4	Tabiatni muhofaza qilish, sog‘lomlashtirish rekreatsiya maqsadlariga mo‘ljallangan yerlar	10	10	26,2	26,2	26,2	75134	75134	69034	71834
5	Tarixiy-madaniy ahamiyatga molik yerlar	2567,2	2567,2	2567,2	2567,2	2567,2	2567,2	2567	2567	2567
6	O‘rmon fondi yerlari	398329,2	398329,2	42052	42052	412049	326943	316705	319628	318943
7	Suv fondi yerlari	36237	36575,2	37067,2	37090	37090	37090	37090	52997	58439
8	Zahira yerlari	3819	3819	3819	3819	3819	3819	3819	1121	59219,9
Viloyat jami		**2856799**	**2856799**	**2486799**	**2486799**	**2856799**	**2856799**	**2856799**	**2856799**	**2856799**

Lalmi yerlar esa asosan tabiiy yog‘ingarchilik hisobiga foydalaniladi. Bunday hududlarda asosan g‘alla va yem-xashak ekinlari yetishtiriladi.

Bo‘z yerlar bu ilgari dehqonchilik uchun ishlatilmagan yoki uzoq vaqt ishlov berilmagan yerlar bo‘lib, ular tabiiy holatda yoki yarim tabiiy holatda saqlangan bo‘ladi.

Yaylov va pichanzorlar chorvachilikni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ular viloyatning cho‘l va tog‘ oldi hududlarida keng tarqalgan.

Qashqadaryo viloyati yer fondi tarkibi turli yer toifalari va turlaridan iborat bo‘lib, ular hududning iqtisodiy rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Yer fondining asosiy qismini qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar tashkil etadi. Sug‘oriladigan yerlar, yaylovlar va lalmi hududlar viloyat qishloq xo‘jaligining asosiy ishlab chiqarish bazasi hisoblanadi.

Kelgusida yer fondini boshqarish jarayonida zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda, yer hisobini olib borish hamda ilmiy asoslangan rejalashtirish orqali hududning barqaror rivojlanishini ta’minlash mumkin.

Xulosa va tavsiyalar: O‘tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Qashqadaryo viloyati yer fondi hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan strategik tabiiy resurs hisoblanadi. Viloyat hududida yer fondining tarkibi turli yer toifalari va yer turlaridan iborat bo‘lib, ularning har biri hudud iqtisodiyotining turli sohalarini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Yer fondining to‘g‘ri taqsimlanishi, undan samarali foydalanish hamda uni muhofaza qilish masalalari hududning barqaror rivojlanishini ta’minlashda muhim omillardan biri hisoblanadi.

Tadqiqot jarayonida Qashqadaryo viloyati yer fondining tarkibi, uning yer toifalari bo‘yicha taqsimlanishi hamda 2018–2026-yillar davomida yuz bergan o‘zgarishlar tahlil qilindi. Tahlillar natijasida viloyat yer fondining asosiy qismini qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar tashkil etishi aniqlandi. Bu holat hududning agrar yo‘nalishga ega ekanligini va qishloq xo‘jaligi viloyat iqtisodiyotining yetakchi tarmoqlaridan biri ekanligini ko‘rsatadi.



Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar tarkibida sug‘oriladigan yerlar, lalmi yerlar, yaylovlar, pichanzorlar hamda ko‘p yillik daraxtzorlar alohida o‘rin egallaydi. Ayniqsa sug‘oriladigan yerlar viloyatda qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining asosiy bazasini tashkil etadi. Ushbu yerlar yuqori hosildorlikka ega bo‘lib, ularda paxta, g‘alla, sabzavot, poliz ekinlari, shuningdek turli bog‘dorchilik mahsulotlari yetishtiriladi. Sug‘oriladigan yerlarning mavjudligi viloyatda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini oshirish hamda aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bundan tashqari, lalmi yerlar ham qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida muhim rol o‘ynaydi. Lalmi yerlarda asosan tabiiy yog‘ingarchilik hisobiga dehqonchilik olib boriladi va bu hududlarda asosan don ekinlari hamda yem-xashak ekinlari yetishtiriladi. Biroq lalmi yerlarning hosildorligi sug‘oriladigan yerlarga nisbatan past bo‘lishi sababli ulardan foydalanishda zamonaviy agrotexnik usullarni qo‘llash muhim ahamiyatga ega.

Viloyatda yaylov va pichanzorlarning keng tarqalganligi chorvachilik tarmog‘ining rivojlanishi uchun muhim imkoniyat yaratadi. Ayniqsa cho‘l va adir hududlarida joylashgan yaylovlar qoramol va qo‘y boqish uchun asosiy ozuqa bazasi hisoblanadi. Chorvachilik viloyat qishloq xo‘jaligining muhim tarmoqlaridan biri bo‘lib, aholining oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojini qondirishda ham muhim o‘rin tutadi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ayrim hududlarda yer resurslaridan foydalanish jarayonida tuproq degradatsiyasi, sho‘rlanish, eroziya hamda boshqa ekologik muammolar kuzatilishi mumkin. Bu esa yerlarning unumdorligini pasayishiga olib keladi. Shu sababli yer resurslarini muhofaza qilish hamda ularning unumdorligini saqlash masalalari muhim ilmiy-amaliy vazifalardan biri hisoblanadi.

Shuningdek, zaxira yerlar ham hudud rivojlanishi uchun muhim resurs hisoblanadi. Ushbu yerlar kelgusida turli iqtisodiy loyihalarni amalga oshirish, qishloq xo‘jaligi maydonlarini kengaytirish yoki yangi infratuzilma obyektlarini barpo etish uchun foydalanilishi mumkin.

Yuqorida keltirilgan tahlillar asosida quyidagi tavsiyalarni ilgari surish mumkin.



Birinchidan, yer resurslaridan foydalanish jarayonida ilmiy asoslangan rejalashtirish tizimini joriy etish zarur. Bu esa yer fondidan samarali foydalanish, ularning to‘g‘ri taqsimlanishini ta’minlash hamda hududiy rivojlanishni muvofiqlashtirish imkonini beradi.

Ikkinchidan, qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlardan foydalanishda zamonaviy agrotexnologiyalarni keng joriy etish muhim ahamiyatga ega. Sug‘orish tizimlarini modernizatsiya qilish, suvni tejovchi texnologiyalarni qo‘llash hamda tuproq unumdorligini oshirishga qaratilgan agrotexnik tadbirlarni amalga oshirish zarur.

Uchinchidan, yaylov va pichanzorlardan samarali foydalanish hamda ularni degradatsiya jarayonlaridan muhofaza qilish choralarini ko‘rish lozim. Yaylovlardan me’yorida foydalanish chorvachilik tarmog‘ining barqaror rivojlanishini ta’minlashga xizmat qiladi.

To‘rtinchidan, yer resurslarini boshqarish jarayonida zamonaviy geoinformatsion texnologiyalar va raqamli kadastr tizimlarini joriy etish muhim hisoblanadi. Bu texnologiyalar yer resurslari holatini monitoring qilish, ularni hisobga olish hamda boshqarish samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Beshinchidan, yer resurslarini muhofaza qilishga qaratilgan ekologik tadbirlarni kuchaytirish zarur. Tuproq eroziyasiga qarshi kurashish, sho‘rlangan yerlarni rekultivatsiya qilish hamda tuproq unumdorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish muhim ahamiyatga ega.

Oltinchidan, suv resurslaridan oqilona foydalanish va suv tejovchi texnologiyalarni keng joriy etish zarur. Bu esa sug‘oriladigan yerlarning samaradorligini oshirish bilan bir qatorda suv resurslarining tejab-tergab ishlatilishini ta’minlaydi.

Yettinchidan, hududda o‘rmon fondi yerlari va tabiiy landshaftlarni muhofaza qilishga alohida e’tibor qaratish lozim. O‘rmonlarni ko‘paytirish hamda yashil hududlarni kengaytirish ekologik barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiladi.

Umuman olganda, Qashqadaryo viloyati yer fondi tarkibi hududning iqtisodiy rivojlanishi uchun katta imkoniyatlarga ega ekanligini ko‘rsatadi. Yer resurslaridan



oqilona va samarali foydalanish, ularni muhofaza qilish hamda zamonaviy boshqaruv mexanizmlarini joriy etish orqali viloyatning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta’minlash mumkin.

ADABIYOTLAR RUYHATI

1. Raximov V.R, Babajanov A.R. Davlat kadastri asoslari. Toshkent, TTU 2012. 132 b.

2. Babajanov A.R., Rahmonov Q., G‘ofirov A.J. Yer kadastri / O‘quv qo‘llanma. Toshkent, «Cho‘lpon», 2014. 168 b.

3. Babajanov A.R., Ro‘ziboev S.B., Tulaganov I.B. «Tuman yer hisoboti (balansi) ni tuzish» metodik ko‘rsatma, Toshkent, TIMI, 2008 y. 53 b.

4.Turayev R.A., Tashbayeva H.X. Yer hisobini yuritishning qishloq xo‘jaligida ahamiyati // “O‘zbekiston zamini” ilmiy-amaliy va innovatsion jurnal. Toshkent, “O‘zdavyerloyiha” DILI, 2020. 2-son. 17-19 b.

5.Xojiyev Q.M. “Yerlarning miqdoriy hisobini yuritish texnologiyasi va uning mavjud uslubyatini takomillashtirish yo‘nalishlari”. // “O‘zbekiston zamini” ilmiy-amaliy va innovatsion jurnali. Toshkent, «O‘zdavyerloyiha» DILI, 2022. 1-son. 106-112 b.

6. Xojiyev.Q.M. “Yerlarning miqdoriy hisobini yuritishda yerlarni xatlovdan o‘tkazishning afzalliklari”. // “O‘zbekiston zamini” ilmiy-amaliy va innovatsion jurnali. Toshkent, “O‘zdavyerloyiha” DILI, 2021 y. 3-son. 83-89 b.

7. Babajanov A.R., Xojiyev Q.M., Sharopov R.N. Yer hisobini yuritish tizimini yanada takomillashtirish masalalari // “O‘zbekiston qishloq va suv xo‘jaligi” jurnali “Agroilm” ilovasi. Toshkent, 2021. 2-son. 112-113 b.

MUNDARIJA

I SHO‘BA. YER RESURSLARNI BARQAROR BOSHQARISH VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISHNING DOLZARB MUAMMOLARI		
1	**O.O‘.Davronov, Sh.R.Aliqulova.** Yaylov yerlaridan foydalanish bo‘yicha xorijiy tajribalar	5
2	**U.X.Niyazmetov, Z.T.Tojiyev.** Toshkent viloyati, parkent tumani hududida tarqalgan lalmi hududlardan foydalanishning mavjud holati	13
3	**H.X.Tashbayeva.** Yer hisobini yurutishda beidou navigatsiya tizimini qo‘llash	19
4	**O.O.G‘aniyev.** Tabiiy yaylovlarda dorivor o‘simliklarning tarqalishini aniqlash va ularni gis texnologiyalar asosida xaritalash	24
5	**J.Ch.Urinov, Y.Sh.Yuldosheva.** O’zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkasi va unga qurib olingan binolarga kadastr hujjatlari berish (Nishon tumani misolida)	29
6	**Y.Sh.Yuldosheva.** Tomorqa yerlaridan samarali foydalanishning huquqiy va ijtimoiy asoslari	36
7	**A.S. Khakberdiyev.** Basic global research trends on cadastre: a bibliometric analysis (2002-2012)	40
8	**X.B.Meyliyeva, M.J.Jabborova.** Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash	46
9	**S.Sh.Ishmurodova.** Yer munosabatlarini huquqiy tartibga solishni takomillashtirish zarurati	51
	Norqulova Gulshoda Samandar qizi Qashqadaryo viloyati yer fondining yer toifalari va turlari bo‘yicha tahlili	55
	Urinov Jamol Chorshanbiyevich, O‘rinov Anvar Zokir o‘g‘li. Jadal urbanizatsiya sharoitida ekin maydonlarini saqlash muammolari: xitoy tajribasi	64
	Urinov Jamol Chorshanbiyevich, O‘rinov Anvar Zokir o‘g‘li. Masofaviy zondlash va gis texnologiyalari asosida urbanizatsiya natijasida ekin maydonlarining yo'qolishini monitoring qilish	67
10	**M.L.Erkinova.** Yer resurslaridan samarali foydalanishda hududiy yondashuvlarni qo‘llash	71
11	**J.R.Ataullayev.** MDH davlatlarda yer resurslarini boshqarishning ilg‘or uslublari	75
12	**J.R. Ataullayev.** Qishloq xo‘jaligi yerlarining chegaralarini aniqlash usullari	79
II SHO‘BA. GEODEZIYA FANI VA SOHASINING MUAMMOLARI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI		

1	**A.O.Axmatov** - Yer resurslaridan foydalanishning iqtisodiy, huquqiy asoslari va muammolari	87
2	**J.CH.Urinov** - O‘zbekiston va xorijiy davlatlarda Ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarning belgilash tajribasi	91
3	**N.SH.Rasulov** - Dronlarning qishloq xo‘jaligidagi o‘rni	99
4	**N.SH.Bobojonov** - Gidrotexnika inshootlarining hayotimizdagi o‘rni va ahamiyati	106
5	**N.SH.Bobojonov** - “Galabek” nasos stansiyasining hozirgi kundagi holati	109
6	**G.S.Norqulova** Ma’muriy-hududiy birliklar chegarasini belgilashdagi muammolar	112
7	**J.Rustamov** - Qishloq xo‘jaligi ekinlarini joylashtirishda GAT texnolonoliyalarini qo‘llash bo‘yicha xorijiy tajribalar	117
III SHO‘BA. EKOLOGIYA VA ATROF-MUHITDAGI GLOBAL VA LOKAL O‘ZGARISHLARNING YER RESURSLARI VA BIOXILMAXILLIKKA TA’SIRI		
1	**D.A.Quvvatov, N.P.Karimov.** Och tusli bo‘z tuproqlar sharoitida kuzgi bug‘doyni sug‘orishning mahsuldor poyalar miqdoriga ta’siri	124
2	**N.V.Safarova.** G‘o‘zani sug‘orishda kollektor-zovur suvlaridan qo‘shimcha foydalanish samaradorligini oshirish	129
3	**Sh.R.Meyliyeva, G.E.O‘ralova.** Quruqlik ostidagi tahdid: yer osti suvlaridan noto‘g‘ri foydalanishda yuzaga keladigan muammolar, insoniyat va tabiat o‘rtasidagi nozik muvozanat	132
4	**A.Sh.Suyunov, G.E.O‘ralova.** Gidrotexnik inshootlar va ularning iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashishdagi roli.	137
5	**M.Sh.Toshmurodova.** Ekologiya va atrof muhit muxofazasida suv resurslaridan foydalanish muammolari	143
6	**U.A.Ziyotov.** Yer fondi bo‘yicha tularga bo‘lishni axamiyati	147
7	**Sh.I. Suyunova.** G‘allaorol tumani suv resurslari va ulardan oqilona foydalanish masalalari	151
8	**Sh.I. Suyunova.** G‘allaorol tumani aholisining joylashuvida suv resurslarining ro‘li	155
9	**U.A.Ziyotov.** O‘simliklarning ildizining rivojlanishida yer osti suvlarining sathining o‘zgarishining ahamiyati	157
10	**Sh.I.Suyunova.** Mirzaobod tumani sho‘rxoklarining vujudga kelishida tabiiy sharoitning ta’siri	160
11	**Sh.I.Suyunova.** Qo‘shtepa tumani suv resurslari va ulardan oqilona foydalanish masalalari	164
12	**D.M.Oripov, S.U.Amanova.** Quritilgan mahsulotning kimyoviy tarkibini o‘zgarishi	169

13	**Y. Tuxtayeva, Y.Xidirova.** Kimyoviy ishlab chiqarish korxonalarining yer ekotizimiga ta’siri va kimyoviy ifloslanishning oldini olish xususidagi tavsiyalar	175
14	**S.M.Tozaboyeva.** Yer resurslaridan oqilona foydalanish va ekologik muammolar	181
IV SHO‘BA. YER RESURSLARIDAN RATSIONAL FOYDALANISH VA DAVLAT KADASTRLARINI YURITISHDA GEODEZIK-KARTOGRAFIK ISHLAR, MASOFADAN ZONDLASH, SO‘NIY YO‘LDOSH TIZIMLARI, GEOINFORMATIKA VA UCHUVCHISIZ UCHISH TEXNOLOGIYALARINI TADBIQ QILISH MUAMMOLARI		
1	**O.O.G‘aniyev, O.O‘.Davronov.** Masofaviy zondlash texnologiyalari asosida bog‘zorlar holatini monitoring qilish va baholash	186
2	**I.E.Qodirov, N.Sh.Rasulov.** Qishloq xo‘jaligi yerlarini xatlovdan o‘tkazish masalalari	194
3	**Sh. A.Musurmankulova.** Murakkab relyefli maydonlarga ishlov berish texnologiyasi	201
4	**N.K.Masharipov.** Sirdaro viloyati Xovos tumani Hamza nomli massivdagi bo‘z yerlar siklik elementlar geokimyosi	206
5	**S.R.Tursinov, A.S.Jovliyev.** Yer bizning yagona uyimiz	210
6	**A.B.Ro‘zimurodov.** Suv tanqisligi sharoitida g‘o‘zani tomchilatib sug‘orish vaqtini tuproqning mexanik tarkibiga moslashtirgan holda belgilash.	214
V SHO‘BA. GEODEZIYA VA GEOINFORMATIKA, KADASTR VA YER TUZISH SOHALARI UCHUN MALAKALI KADRLAR TAYYORLASH, QAYTA TAYYORLASH HAMDA MUTAXASSISLAR MALAKASINI OSHIRISH TIZIMINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI		
1	**F.S.Safarov, A.O.Axmatov.** Suv resurslari zahirasi va ularning geografik joylashishi	223
2	**U.M.Maxmudov.** Geodeziyada qo‘llaniladigan koordinatalar sistemasi	228
3	**N.F.Muazzamov.** Qishloq xo‘jaligi yerlarini masofadan zondlash texnologiyalarini zamonaviy dasturlar orqali qo‘llash	233
4	**X. Amankulova, J.Urinov** *A*gricultural drought monitoring based on landsat 8 derived vegetation health indices: case study of mezőhegyes, south-eastern hungary	237
5	**D.D.Shog‘darov** O‘zbekistonda lalmi yerlardan foydalanish tendensiyasi.	245
6	**D.D.Shog‘darov** Lalmi yer maydonlari degradatsiyasini aniqlashda Google earth engine platformasining imkoniyatlari.	249
7	**J.Rustamov -** Cho‘l mintaqasi hududidagi qishloq xo‘jaligi yerlarining o‘ziga xos xususiyatlari	254
8	**M.A.Safarova -** Irrigatsiya kanallarida o‘zan deformatsiyasiga ta’sir qiluvchi omillar	259

YER RESURSLARIDAN BARQAROR FOYDALANISH VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISHNING DOLZARB MUAMMOLARI

(Respublika ilmiy-amaliy anjumani maqolalar to‘plami)

2025-yil 18-19 aprel